



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKI  
TO'LOV TASHKILOTI FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISH UCHUN

47-raqamli  
LITSENZIYA

2024-yil "18" may

Toshkent shahri

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2024-yil "18" maydagi  
17/18-sonli qaroriga muvofiq

**"MARKETPLACE TRADING" aksiyadorlik jamiyati**

100128, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Zulfiyaxonim ko'chasi, 12-uy

O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonuniga  
asosan to'lov tashkiloti sifatida faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega.

**Ushbu litsenziya cheklanmagan muddatga berildi.**

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ushbu litsenziya shartlariga  
o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishi hamda O'zbekiston Respublikasining  
"O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi va "To'lovlar va to'lov  
tizimlari to'g'risida"gi qonunlarida nazarda tutilgan hollarda uni bekor qilishi mumkin.

To'lov tashkiloti 2022-yil "19" noyabrda 47-raqam ostida to'lov tashkilotlari  
reyestriga kiritildi.

*O'zbekiston Respublikasi  
Markaziy bankining vakolati shaxsi  
N. Saydullayev*





**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKI BOSHQARUVI  
QARORI**

2024 -y. "18" may

17/18 -son

Toshkent sh.

**"MARKETPLACE TRADING" mas'uliyati cheklangan jamiyatining tashkiliy-huquqiy shakli "MARKETPLACE TRADING" aksiyadorlik jamiyatiga o'zgarganligi munosabati bilan unga to'lov tashkiloti faoliyatini amalga oshirish uchun berilgan litsenziyani qayta rasmiylashtirish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Bank nazorati qo'mitasining "MARKETPLACE TRADING" mas'uliyati cheklangan jamiyatining tashkiliy-huquqiy shakli "MARKETPLACE TRADING" aksiyadorlik jamiyatiga o'zgarganligi munosabati bilan unga to'lov tashkiloti faoliyatini amalga oshirish uchun berilgan litsenziyani qayta rasmiylashtirishni maqsadga muvofiq deb topish to'g'risidagi qarorini ko'rib chiqib, "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 20-moddasiga muvofiq Markaziy bank boshqaruvi

**QAROR QILADI:**

1. Kun tartibidagi masala yuzasidan Litsenziyalash va ruxsat berish tartiboti departamenti direktori Z. Zunnunovning bergan axboroti va Bank nazorati qo'mitasining 2024-yil 17-maydagi 613/2-sonli qarori ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. "MARKETPLACE TRADING" mas'uliyati cheklangan jamiyatining tashkiliy-huquqiy shakli "MARKETPLACE TRADING" aksiyadorlik jamiyatiga o'zgarganligi munosabati bilan unga to'lov tashkiloti faoliyatini amalga oshirish uchun berilgan litsenziya qayta rasmiylashtirilsin.
3. Jamoatchilik bilan aloqalar va kommunikatsion siyosat departamenti belgilangan tartibda "MARKETPLACE TRADING" mas'uliyati cheklangan jamiyatining tashkiliy-huquqiy shakli "MARKETPLACE TRADING" aksiyadorlik jamiyatiga o'zgarganligi haqidagi xabarni Markaziy bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilishini ta'minlasin.
4. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish raisning birinchi o'rinnbosari N. Saydullayev zimmasiga yuklatilsin.

**Markaziy bank raisi**

**M.B. Nurmuratov**